



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

**2023/8**

**TA'LIM VA  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



**Muassis:**

Buxoro davlat universiteti  
Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov Bahodir  
Baxshullayevich

**Jamoatchilik kengashi raisi:**  
Xamidov Obidjon Xafizovich,  
Buxoro davlat universiteti rektori

**Tahririyat kengashi raisi:**  
Maxmudov Mels Hasanovich

**Mas'ul kotib:** Akramova Gulbahor  
Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov Ismoil  
Ergashevich

**Tahririyat manzili:**

Buxoro shahar,  
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

Telefon:  
+998(90)744-00-22

E-mail:  
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2023 y.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.  
Buyurtma raqami 1.23  
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi.  
2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
Asatullaev M. I. История подготовки кадровых работников культуры Узбекистана (на примере Самаркандской области).	7
Axmedov Z. R. O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda Uchinchi Renasans bunyodkorlarini tarbiyalashda nuroniylarni tutgan o'rni.	11
Toirov A. O. Jaloliddin Manguberdi hayotining arab va fors tilidagi manbalarda yoritilishi to'g'risida mulohazalar	15
To'raho'jayev S. Turkiston ASSRdan qochoqlarni reevakuatsiya qilinishi	20
Xasanova Z. Дж. Массовое восстание 1916 года в Туркестане примере Фергенской области. (по материалам национального архива Республики Узбекистан).	24
Yo'ldashev S. A. Amir Temur va Temuriylarning tashqi savdo va elchilik aloqalari	29
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
Karamova Sh. L. An'anaviy she'riyatda metaforik obrazlilikning kuchayishi.	33
Kasimova R. R. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi inglizcha tarjimasida milliylik ifodasi	37
Raximova M. A. Esse matnlarida qo'llanilgan pretsedent birliklar	41
Saidova K. Omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlash	45
Shodieva Sh. I. Vatan konseptining leksik-semantik maydonlari	48
Toirova G.I., Chudakova V. P., Kuziyeva T.F. Characteristics of Writing abbreviations adapted to the uzbek language in the process of using integral digital tools	51
Turopova P. Sh. "Muqanna" dramasi pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish	57
Yorbulova D. Sh. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Galdir" tahlili	60
Ziyodullayev A. R. Ingliz va o'zbek tillarida eponimlarning lingvokulturologik aspektlari	64
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Ahmedjanov N.A. O'zbekiston turizmi rivojida jizzax viloyatining o'rni va roli	69
Алибеков Ш. А. Теоретические принципы развития жизненно-практических компетенций у обучающихся старшеклассников на основе интегративного подхода.	73
Aliyev N. M. Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning innovasion-pedagogik tizimi	77
Allamberganova M.X. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga elementar matematik tushunchalarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanish	81
Askarova Sh. M. Yevropada shaxs mediamadaniyatiga oid tadqiqotlar	85
Asqarova M. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslari	88
Avazov A. J. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda ijtimoiy-madaniy ta'sirlar	92
Axnazarova D. E. Talabalarda ijodkorlik qobiliyat xususiyatlarini namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik jihatlarini	95



## O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASI INGLIZCHA TARJIMASIDA MILLIYLIK IFODASI

*Kasimova Ra’no Raxmatulloevna,  
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc), filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent*

*Baxshulloyeva Mohinabonu Bahodirovna,  
Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi III bosqich talabasi*

*Annotatsiya: Maqolada mashhur o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, asarlariga oid fikr-mulohazalar, xususan, “Dunyoning ishlari” asarining inglizcha o‘girmalari haqida so‘z yuritilgan. Oddiyligi va jonliligi bilan ajralib turadigan “Dunyoning ishlari” qissasining ingliz tili o‘girmasida milliylikning ifodalanishi tahlil va talqin qilingan.*

*Tayanch so‘zlar: bevosita tarjima, milliylik, shakl va mazmun birligi, supa, rayhon, tillaqosh, diydor, surp yaktak, fotiha.*

## ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ УТКИРА ХОШИМОВА «ДУНЁНИНГ ИШЛАРИ»

*Касимова Раъно Рахматуллоевна,  
Докторант (DSc) Бухарского государственного университета, доктор философии (PhD)  
филологических наук, доцент*

*Бахиуллоева Мохинабону Баходировна,  
Студент III курса направления иностранного языка и литературы*

*Annotatsiya: В статье рассматриваются уникальные особенности творчества известного узбекского писателя Уткира Хашимова, мнения о его произведениях, в частности, об английском переводе произведения «Дунёнинг ишлари». А также, анализируется и интерпретируется выражение национальности в английском переводе рассказа «Дунёнинг ишлари», отличающееся простотой и живостью.*

*Ключевые слова: прямой перевод, национальность, единство формы и содержания, супа, базилик, тиллакош, дийдор, сурп яктак, фотиha.*

## EXPRESSION OF NATIONALITY IN THE ENGLISH TRANSLATION OF “AFFAIRS OF LIFE” BY UTKIR HOSHIMOV

*Kasimova Rano Raxmatulloevna,  
Doctoral student (DSc) of Bukhara State University, doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences, associate professor*

*Bakhshulloyeva Mohinabonu Bahodirovna,  
III year student of Foreign Language and Literature*

*Annotation: The article is dedicated to the specific features of the creativity of the famous Uzbek writer Utkir Hoshimov, critical views about his works, in particular, the English translation of the work “Affairs of Life”. The expression of nationality in the English translation of the story “Affairs of Life”, which is distinguished by its simplicity and vividness, is analyzed and interpreted as well.*

*Keywords: direct translation, nationality, unity of form and content, supa, basil, tillakosh, diydor, surp yaktak, fotiha.*

O‘tkir Hoshimov hayotiy va qiziqarli hikoya, qissa, pyesa, romanlari bilan o‘zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan yozuvchilardan biridir.

Muallifning “Po‘lat chavandoz” nomli ocherklar to‘plami, “Bahor qaytmaydi”, “Xazon bo‘lgan bahor”, “Inson sadoqati”, “Vijdon dorisi”, “To‘ylar muborak”, “Qatag‘on”, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, “Urushning so‘nggi qurboni”, “Yanga”, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Umr savdosi”, “Quyosh tarozusi”, “Oqbulut, oppoq bulut”, “Shamol esaveradi”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki besh”, “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “To‘ylar muborak”, “Sizdan ugina, bizdan bugina”, “Vijdon dorisi”, “Inson sadoqati”, “Qatag‘on”, “Cho‘l havosi” kabi asarlarida zamonaviy o‘zbek xalqining

ma naviy dunyosi, milliy ruhi, urf-odatlarini, taqdiri, o'tkir ijtimoiy muammolar tasvirlangan. "Cho'l havosi" nomli birinchi qissasi Abdulla Qahhor tomonidan yuksak e'tirof etilgan.

O'tkir Hoshimov yozuvchilik bilan bir qatorda tarjimonlik sohasida ham qalam tebratib, E. Xemenguey, K. Simonov, A. Kuprin singari adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan va o'z uslubiga ega serqirra ijodkorligini namoyon eta olgan.

"Dunyoning ishlari" yozuvchi bolaligidagi voqealarga asoslangan bo'lib, asar tasvirlarining jonliligi, hayotiyiligi bilan kitobxonga ta'sir etadi. Fikrimizni O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning mazkur qissa haqidagi ta'riflari bilan dalillaymiz: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi".

Ma'lumki, har bir xalq madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular madaniyatlararo tafovutlarni, ya'ni farqli jihatlarni namoyon etadi hamda tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchiliklar tug'diradi. Yozuvching "Dunyoning ishlari" qissasi oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turgani bois xorijiy tillarga, shu jumladan, ingliz tiliga ham o'girilgan. Qissaning O.Mo'minov tomonidan bevosita o'zbek tilidan tarjima qilingan inglizcha variantini asar asliyati bilan qiyoslab, o'girmada milliylikning ifodalanishini kuzatamiz:

Asliyatda: ... Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loplatip suv separ, kun bo'yi oftobda qizigan er hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib, ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Tarjimada: There was supa under that almond tree. As soon as the sun sat down my mother used to water the yard, the smell of the land which had been heated during the whole day by the sun gave out a scent with basil, by that bench and everywhere would get silent then.

Asliyat matnida keltirilgan supa etnografizmining ingliz tilida supa tarzida transliteratsiya qilinishi, rayhon o'simligining basil deb tarjima qilinishi orqali, milliy-madaniy xususiyat kasb etgan so'zlarni tarjimada berishning ikki xil usulini kuzatamiz. Shuningdek, tarjimada ko'loplatib aniqlovchisi tushurib qoldirilib, asliyatdagi bo'rttirib ko'rsatilgan ko'p miqdorda suv sepish jarayoni, shunchaki water so'zi yordamida ingliz tiliga o'girilishi ekspressivlikning susayishiga olib kelgan.

Asliyatda: Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

Oymomaxon xulla,  
Qanotlari tilla.  
Subhon Ollo sizga,  
Umr bersin bizga...

Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to'xtab qolar, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi.

Tarjimada: After that thin moon, like a tillaqosh would sail out into the sky full of numerous stars. Starring at the moon my mother used to whisper calmly:

Dearest moon,  
With goldenwings.  
Subhonalloh to you  
Long life to us...

Having sung this poem she used to caress my head. The moon used to stop sailing as if it wanted to listen to this enchants again, stars glanced with sad eyes, and mother used to tell fairy-tales.

Asliyatda tillaqoshga o'xshatilgan oy ingichkaligi ingliz tilida tillaqosh ko'rinishida transliteratsiya qilingan va natijada asliyat mazmuni to'liq ifodasini topa olmagan, chunki oyning tillaqoshdek tasvirlanishi yangichiqqan oyningyarqirrab turganini bildiradi. Shuning uchun bu vaziyatda New Moon birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq bo'lardi. Matnda o'zbek xalqining yangi oy chiqishi bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Ajdodlarimiz yangi oy chiqqan paytda osmonga qarab ezgu niyatlar qilib, yangi oy va yillarga sog'-salomat etkazishini tilab duoga qo'l ko'tarishadi. Asliyatdagi Oymomo xulla Qanotlari tilla murojaati ingliz tilida Dearest, Moon, with Golden Wings tarzida tarjima qilingan. Xulla so'zining, hattoki, o'zbek tili izohli lug'atlarida ham berilmagani hisobga olinadigan bo'lsa, mutarjim qo'llagan almashtirish usulini eng ma'qul usul, deb hisoblash mumkin, chunki asliyatda oyni erkalab, unga murojatt qilingan bo'lsa, tarjimada ham shu murojatt mazmuni saqlab qolingani kuzatiladi. Shuningdek, Subhonalloh so'zining transkripsiya qilinishi hamda "Subhanolloh – Recitation from Koran", ya'ni Qur'oni Karimdan keltirilgan qiroat

deya izohlanishi milliy ruhni yana bir marta namoyon etadi.

Asliyatda: oymoma esa bu sehrli qo‘shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to‘xtab qolar, yulduzlar o‘ychan ko‘zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi .

Tarjimada: The moon used to stop sailing as if it wanted to listen to this enchants again, stars glanced with sad eyes, and mother used to tell fairy-tales .

Muallif asliyat matnida oymoma va yulduzlarni jonlantirib, bolalarcha erkalangani, o‘ychan ko‘zlarini muloyim tikib turganini ta‘sirli ifodalaydi. Kitobxon ko‘z o‘ngida bolakay yuzi gavdalanadi. Xuddi mana shunday jonlantirish badiiy tasvir ifodasi ingliz tili o‘girmasida ham kuzatiladi. Biroq o‘ychan ko‘zlarni sad eyes, ya‘ni g‘amgin ko‘zlar, deb tarjima qilinishi natijasida yulduzning g‘amgin ko‘rinishi gavdalanadi. Aslida esa oymomaning ona qo‘shig‘idan bolalarcha zavqlangani, yulduzlarning esa sokinligi anglashiladi. Shu o‘rinda thoughtful eyes birikmasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lardir.

Asliyat matnida keltirilgan yana bir parchaga e‘tibor qaratamiz:

Asliyatda: Ochil. Ochil. Oq toshlar-a,  
Men onamni ko‘rayin-a,  
Diydoriga to‘yayin-a .

Tarjimada: Open up; open up, dear white stones.  
Let me see my mother again.  
Let me be satisfied of her face

Tarjima jarayonida shakl va mazmun birligi asar badiiyatini saqlashning muhim unsurlaridan biridir. Tarjimonning vazifasi esa Y.I. Resker ta‘kidlaganidek, boshqa til vositasi orqali asliyatning stilistik va ekspressiv xususiyatlarini saqlagan holda uning mazmunini aniq va butunligicha tiklashdir . Tarjima butunligi deganda, olim tarjima tilida mazmun va shakl birligining saqlanishini nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan she‘riy parchaning asliyatidagi a-a-a qofiyasi tarjima variantida a-b-a shaklida ifodalangan bo‘lib, birinchi va uchinchi misralar qofiyadorligiga erishilgan, ammo mazmundan yiroqlashilgan.

Asliyatdagi diydor so‘zi biron narsa yoki kishi husnidan to‘yib-to‘yib zavq olish manosini beradi. Xuddi shu diydoringga to‘yayin-a birikmasi ingliz tiliga be satisfied of birikmasi orqali o‘girilgan. Satisfy leksemasi qoniqmoq ma‘nosini ifodalaydi. Biroq Kembridj izohli lug‘atida satisfied of – to make someone believe that something is true , ya‘ni biror bir narsaning haqqoniyligiga birovni ishontirish, deb izohlangan. Ko‘rinib turibdiki, mazkur ma‘no diydorga to‘ymoq ma‘nosini ifodalaydi. Odatda, uzoq muddat ko‘rishmaganlar, ayniqsa, onalar farzandlarini biror erga jo‘natish oldidan yoki aksincha, uzoq safardan qaytganida uning diydoriga to‘yib olgisi, sog‘inchini shu orqali ifoda etgisi keladi. Bu o‘rinda diydor sog‘inchni, qo‘msashni ifodalovchi ingliz tilidagi miss so‘ziga ekvivalent bo‘lishi mumkin. Chunki miss – to feel sad that a person or thing is not present degan ma‘noni anglatadi. Yuqorida keltirilgan qo‘shiqdan qizaloq onasini juda ham sog‘ingani va uning diydoriga to‘yishni istagani talqin qilinadi.

Hozirgi kunda badiiy tarjimaga oid ko‘plab manbalarda badiiy asar mazmun-mohiyatini etkazib berish muhimligi ta‘kidlanib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda keltirilgan she‘riy parchani quyidagicha tarjima qilish mumkin:

Open up, open up, open white stones,  
Let my mother’s face be seen,  
I have missed that so much .

O‘zbek xalqi azaldan bolajon xalq bo‘lgani bois, farzandni ulug‘ ne‘mat hisoblashadi. Mahallakuy har bir bola tarbiyasiga birdek mas‘ul bo‘lib, mehr-muruvvat ko‘rsatishadi. Ikkinchi jahon urushi vaqtlarida ham eng ko‘p etim bolalarni asrab olib, o‘z bolalaridek mehribonchilik qilishgan. Xalqning e‘tiqodiga ko‘ra etim bolani boshini silash savob hisoblangan. Quyidagi parchada ham etim bolalar haqida so‘z yuritilgan.

Asliyatda: Ko‘rdingmi, yaxshi o‘smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak .

Tarjimada: You see, it is smaller than others, we must take care of orphans .

Asliyatda keltirilgan rahm qilmoq fe‘li insoniylikni ifodalab, ingliz tilida to look after someone or something, birovga g‘amxo‘rlik qilish ma‘nosini anglatuvchi take care of frazeologik birligi ekvivalent sifatida tanlangan. Asliyat va tarjima variantida berilgan rahm qilmoq va take care of davlatimiz bosh siyosatiga ko‘tarilgan yosh avlodni tarbiyalash g‘oyasi bilan hamohang, chunki bu orqali yoshlarda insonparvarlik tuyg‘usi shakllanadi.

Asliyatda: Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o‘ziga yarashgan go‘rkov yuziga fotiha tortib o‘rnidan turadi.

Tarjimada: Grave man with white yaktak and brown beards suited to himself made fotiha and

stood up .

Asliyatda oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan ta'rifi go'rkovga nisbatan aytilgan. Mazkur misolda oq surp yaktak o'zbek mentalitetini namoyon etsa, mosh-guruch soqoli orqali yoshi unchalik qari bo'lmagan otaxon ko'z oldimizda gavdalanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida yaktak – bir qavat, astarsiz kiyim, uzun, ko'krak oldi ochiq, erkaklar ko'yagi , deya sharhlanadi. Shuningdek, fotiha tortish harakati ham musulmonlarga xos. Ma'lumki, inson olamdan ko'z yumsa, dafn etiladi va bayram, hayit kunlarida marhum xotirlanib, uning ruhiga fotiha o'qiladi. Fotiha o'qimoq Qur'onning qisqa suralaridan birini o'qib, marhumning ruhiga xudodan mehru shafqat, ezgulik tilamoqlikni anglatadi. Mazkur misolda dafn marosimidan so'ng oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqolli otaxon fotiha o'qib, o'rnidan turgani ta'kidlangan. Milliylikni ifodalaovchi yaktak va fotiha etnografizmlari ingliz tiliga o'girilmay, transliteratsiya usulida berilgan.

Asliyatda: Gazetachining ishi bir tomondan uloqchi otga, ikkinchi tomondan omoch tortadigan otga o'xshaydi. Uloqchi otdek manzilga yuguradi-yu, er haydaydigan otdek har kuni omoch tortadi..

Tarjimada: The work of the newspaper editor resembles to two horses: horse in the uloq and horse of plough. He runs to the address like a horse in uloq and ploughs land like a horse of plough...

Asliyatda ta'kidlangan gazetachi uloqchi otga o'xshatilib, hamma ishni doim chaqqonlik bilan bajarishini anglatsa, omoch otga mengzalishi uning mehnati og'irligini bildiradi. Uloqchi ot tarjimada a horse in uloq singari ifodalaniib, uloq so'zi transliteratsiya qilingan.

Milliylikni ifodalovchi yana shunday bir misolni ko'rib chiqamiz.

Asliyatda: Oyim kun chiqmasdan turib yo'laklarni supurardi. Biz aka-ukalar suv sepamiz .

Tarjimada: Mother would sweep the passages in early dawn. We, brothers watered the street .

O'zbek xalqida erta sahardan turib, hovlini, yo'laklarni supurib, suv sepish odat tusiga kirib qolgan va bu bilan xonadonga fayzu baraka kirishiga ishonishgan.

Har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari, milliyligini namoyon etuvchi qadriyatlari, an'analari mavjud. Bunday milliylikka yo'g'rilgan asarlarni o'zga tilga o'girish tarjimondan katta mahorat talab etadi. Tarjimon tilni bilishdan tashqari shu xalq madaniyati bilan yaqindan tanishgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, bir tildan o'zga tilga o'girilgan asarlar orqali madaniyatlararo aloqalar mustahkamlanadi, bir-biriga yaqin bo'lmagan xalqlar yaqinlashib, do'stlik rishtalari bo'g'lanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: ИМО, 1974. – 254 с.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. I.A.–Д / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Ж.V. Шукрона – X / 5916.

Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 338.B.

Hoshimov O'tkir. Affairs of Life. Stories. – Tashkent, 2013. –p.165.

Said A. Ijod va jasorat. / Hoshimov O. Tanlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: Sharq, 2009. – B.10.

www.CALD Cambridge Advanced Learners' Dictionary. Third edition